



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th January, 2025

NUTQ BUZILISHLARINI TURLARI

Mirmuhammadova Hadicha Miraziz qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universitet

Special pedagogy fakulteti talabasi

mirmuhammadovahadicha@gmail.com

+998881773338

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Nutq buzilishlarini turlarini,nutqning anatomik-fiziologik mexanizmlari,nutqning buzilishini taxlil qilish tamoyili,og'zaki nutq buzilishi,yozma nutq kamchiliklari,artikulatsiya buzilishi,nutqning tizimli buzilishi,nutqning ravonligi sur'ati,ritmi,tempi buzilishi haqida barcha ma'lumatlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Nutqning ravonligi,talafuz muammolari,ovozni notog'ri chiqarish,miya shikastlanishi,so'z boyligining cheklanishi,so'zlarni takrorlash,tushunmaslik,chiqarish,dislaliya,rinolaliya,dizartriya,afaniya,duduqlanish,alaliya,afaziya.

Аннотация:

В данной статье освещены виды нарушений речи, анатомо-физиологические механизмы речи, принципы анализа нарушений речи, нарушения устной речи, недостатки письменной речи, нарушения артикуляции, системные нарушения речи, а также отклонения в плавности речи, ритме, темпе и скорости.

Ключевые слова: Плавность речи, проблемы произношения, неправильное воспроизведение звуков, повреждение мозга, ограниченность словарного запаса, повторение слов, непонимание, артикуляция, дислалия, ринолалия, дизартрия, афония, заикание, алалия, афазия.



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th January, 2025

Annotation:

This article provides a detailed overview of types of speech disorders, the anatomical and physiological mechanisms of speech, principles for analyzing speech disorders, oral speech impairments, deficiencies in written speech, articulation disorders, systematic speech impairments, as well as disruptions in speech fluency, rhythm, tempo, and speed.

Keywords: Speech fluency, pronunciation problems, incorrect sound production, brain damage, limited vocabulary, word repetition, misunderstanding, articulation, dyslalia, rhinolalia, dysarthria, aphonia, stuttering, alalia, aphasia.

Nutq – bu insonning asosiy muloqot vositasi bo‘lib, o‘z ichiga so‘zlashish, tinglash, o‘qish va yozish qobiliyatlarini oladi. Nutqning asosiy funksiyalari: Muloqot qilish: Nutq insonlar o‘rtasida axborot, fikr, tuyg‘ularni almashish imkonini beradi. Sharh berish: Nutq orqali inson o‘z fikrlarini, qarashlarini, tajribasini boshqa odamlar bilan baham ko‘radi. Tashqi muhit bilan aloqada bo‘lish: Nutq yordamida odamlar o‘z atrofidagi olam haqida bilib oladi, muhit bilan moslashadi. Ijtimoiylashuv: Nutq insonning ijtimoiy hayotga kirib borishi va jamiyat bilan aloqa o‘rnatishi uchun zarurdir.

Nutq fiziologik jihatdan quyidagi

tizimlardan iborat: Ovoz chiqarish tizimi: Bu lablar, til, tomoq, yutak kabi nutqning shakllanishida ishtirok etadigan organlar. Nerv sistemasidan boshqarilish: Nutqni boshqaruvchi markazlar miya sohalarida joylashgan bo‘lib, nutqning to‘g‘ri amalga oshishini ta’minlaydi. Mushaklar apparati: Nutqni shakllantiruvchi jarayonlarda lablar, til, bo‘yin mushaklari ishtirok etadi.

Nutq

buzilishlari: Nutq buzilishlari insonning nutq qilish qobiliyatiga ta’sir qiladigan turli patologik holatlardir. Bunda nutqning ravonligi, so‘zlarni tushunish va aytish, ovoz chiqarish, artikulyatsiya va boshqa jihatlar buzilishi mumkin. Nutq buzilishlari ko‘p sabablarga ko‘ra yuzaga keladi: miya shikastlanishi, asab tizimining funksional va organik o‘zgarishlari, ruhiy holat, ijtimoiy omillar va boshqalar.

Og’zaki nutq buzilishi

Tovushlar

talafuzidagi kamchiliklar:



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th January, 2025

dislaliya,rinolaliya,dizartriya.

Dislaliya

-grekcha so'zdan olingan bo'lib,dis-buzilish,lalia-nutq degan ma'noni anglatadi. Dislaliya ikki turga bo'linadi:mexanik va funksional.

Mexanik dislaliya va uning sabablari: Mexanik(organik)dislaliya pereferik nutq apparatining(til,jag',tanglay,tish)organic buzilishdir.Til tagidagi etning(yugancha)kaltaligi mexanik dislaliyaga sabab bo'ladi.Bu kamchilik til harakatini qiyinlashtiradi,til tagidagi etning haddan tashqari kalta bo'lishi tilning yuqori tomon ko'tarilishiga imkon bermaydi.Tilning haddan tashqari katta bo'lishi yoki haddan tashqari kichik va tor bo'lishi ham dislaliyaga olib keladi.Jag' tuzilishidagi kamchiliklar prikus nonarmalliklarga olib keladi.Prognatiya-yuqori jag' oldinga tomon chiqqan bo'ladi.Buning natijasida pastki oldingi tishlar yuqoridagi tishlar bilan birlashmaydi.Progeniya-pastki jag' oldinga chiqqan bo'ladi.Tanglayning notog'ri tuzilishi ham tovushlarning to'g'ri talaffuziga xalaqit beradi.Tor,baland yoki past,yassi tanglay ko'p tovushlarning tog'ri artikulyatsiyasiga imkon bermaydi.Lablarning qalinligi ingichka va kam harakatchanligi ham lab va lab-tish tovushlarni aniq talaffuziga xalaqit beradi.Funksional dislaliya va uning sabablari: Funksional dislaliya bolalarda taqlid asosida ham yuzaga kelishi mumkin.Tovushlar talaffuzi hali yetarli,to'g'ri shakllanmagan kichik yoshdagi bolalar bilan,tili chuchuk yoki noaniq,tez shoshib gapiradigan kishilar bilan doimo muloqotda bo'lishi bola nutqiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.Ko'pincha bola oilada tovushlarni noto'g'ri talaffuz etuvchi kishi nutqiga taqlid etadi.Oilada ikki tillilik,pedagogic qarovsizlik ham funsional disloliyaga sabab bo'ladi.Fonematik eshitishning yaxshi rivojlanmaganligi bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni keltirib chiqaruvchi sabablardan biridir.Bu holda tovushlar differensiyasi(tovushlarni farqlash)qiyinlashadi.Bolalar asosan bir-biriga o'xshash;jarangli-jarangsiz,sirg'aluvchi va shovqinli tovushlarni ajrata olmaydilar.Bu qiyinchiliklar natijasida tovushlarning to'g'ri talaffuzi ham uzoq vaqtga cho'zilib ketadi.



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th January, 2025

Dislaliya turlari va uning namoyon bo'lishi.

Tovushlarning noto'g'ri talaffuz etish ona tilida hamma tovushlarda uchratish mumkin.Tovushlar talaffuzining buzilishi asosan artikulyatsion jihatdan talafuz qilish qiyin bo'lgan:sonor(r,l),sirg'aluvchi(s,z)va shovqinli(sh,j,ch),til orqa(k,g)tovushlarida uchraydi.Agar bir fonetik gruppaga kiruvchi tovushlar talaffuzida kamchiliklar bo'lsa(masalan,sirg'aluvchi s,z)bu-monomorf dislaliya.Agar u ikki va undan ortiq artikulyatsiya guruhiga tegishli bo'lsa (masalan,rotatsizm,sigmatizm va lambdatsizm)bu-polimorf dislaliya.

Rinolaliya

-grekcha so'zdan olingan bo'lib,rhinos-burun,lalia-nutq degan ma'noni anglatadi.Nutq apparatining anatomik-fiziologik kamchiliklari sababli ovoz tembri va tovushlar talaffuzidagi buzilishdir.Natijada,burunning resonator funksiyasi buziladi:tovushlar paydo bo'lganda,havo oqimi noto'g'ri oqimga o'tadi.Rinolaliyada nutqning artikulyatsion va akustik tarkibiy qismlari buzilgan:unli va undosh tovushlar burunli,manqalangan o'ziga xos talaffuz etiladi.Rinolaliya uch xil shaklda bo'ladi:ochiq,aralash va yopiq. Ochiq rinolaliya havo oqimi bir vaqtning o'zida og'izdan va burun bo'shlig'idan o'tadi,bu esa ovoz chiqarganda burun rezonansini hosil qiladi.Bunday tovush,masalan,bosh miya jarohati,"quyon lab"va boshqalar natijasida yuzaga kelishi mumkin.Ochiq rinolaliya organic va funksional bo'lishi mumkin.Organik ochiq rinolaliya tug'ma va hayot davomida orttirilgan bo'ladi.Masalan:yumshoq va qattiq tanglay,og'iz va burun bo'shlig'ida jarohatlanishlar yoki yumshoq tanglayni hayot davomida falajlanishi sabab bo'lishi mumkin.

Aralash rinolaliyada ham

ochiq,ham yopiq rinolaliyani belgilari birgalikda namoyon bo'ladi.Bunda burun yo'li to'silib qolgani holda tanglay-xalqum pardasida ham o'zgarishlar bo'ladi.Burun tovushlari yopiq rinolaliyadagi,bsohqa tovushlar esa ochiq rinolaliyadagi kabi talaffuz qilinadi. Yopiq rinolaliya shaklining kelib chiqish sababi,burun bo'shlig'idagi organik o'zgarishlar yoki tanglay-xalqum birlashishining funksional buzilishidir.



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th January, 2025

Dizartriya-

grekcha so'zdan olingen bo'lib, dis-bo'lak, arthon-biriktirish degan ma'noni anglatadi. Dizartriya nutq apparati inervatsiyasining organik buzilishi sababli nutqning talaffuz tomonidan buzilishidir. Dizartriya sabablari: bosh miyaning yallig'lanishi, miyada qon aylanishining buzilishi, bosh miya shikastlanishlari. Dizartrianing og'ir shaklida nutq butunlay tushunarsiz bo'ladi. Bunday hol anartriya deb ataladi. Anartriya-so'zi grekchadan olingen bo'lib, a-yo'q, arthon-biriktirish degan ma'noni anglatadi.

Ovoz buzilishlari: afoniya, disfoniya, fonosteniya.

Afoniya-

lotin tilida-inkor etish, grek tilida fonos-ovoz, butunlay ovoz chiqmasligi, ovoz yo'qligi degan ma'nolarni anglatadi. Afoniya — bu ovoz chiqarib gapira olmaslik yoki ovozni yo'qotish holati. Odatda bu holat tovush paychalari (vokal chordalar) yoki ularning atrofidagi tuzilmalar bilan bog'liq muammolar natijasida yuzaga keladi. Afoniya paytida shaxs shovqinsiz pichirlab gapirishi mumkin, lekin normal ovoz chiqarish qobiliyati yo'qoladi. Afoniya sabablari: Insult yoki miya shikastlanishi, tomoqning yallig'lanishi, odatda virusli infeksiya tufayli, haddan tashqari baland gapirish yoki baqirish, mexanik yoki jarrohlik operatsiyalari natijasida yuzaga keladi.

Disfoniya

-dis-buzilish, fonos-ovoz, ovoz kuchi, balandligi va tembrining qisman buzlishi. Disfoniya — bu tovush paychalarining yallig'lanishi, shikastlanishi yoki boshqa sabablarga ko'ra ovozning buzilishi. Bu holat ovozning zaiflashishi, bo'g'iq yoki g'adir-budur eshitilishi, hatto og'riqli gapirishga olib kelishi mumkin. Disfoniya afoniyadan farqli o'laroq, ovoz to'liq yo'qolmaydi, lekin uning sifati yoki balandligi sezilarli darajada o'zgaradi.

Fonosteniya

-fonos-grekcha-ovoz, asteniya-kuchsiz, darmonsiz degan ma'noni anglatadi. Ovoz apparatida organik o'zgarishlar bo'limgan holda ovoz hosil qilish funksiyasining



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th January, 2025

buzilishi. Fonosteniya — bu ovozning charchashi yoki zaiflashishi bilan ifodalananadigan holat. Bu tovushni chiqaruvchi apparatning ortiqcha yuklanishi natijasida yuzaga keladi. Fonosteniya ovoz sohasida ishlaydigan odamlarda, masalan, o'qituvchilar, qo'shiqchilar, aktyorlar va notiqlarda tez-tez uchraydi.

Nutq ravonligi sur'ati, ritmi, tempi buzilishi:

taxilaliya bradilaliya duduqlanish.

Taxilaliya-tachy-tez, shoshqaloq, lalia-nutq degan ma'noni anglatadi. Tezlashgan nutq-nutq sur'atining patologik tezlashishi, haddan tashqari bidirlab, tez gapirish taxilaliya deyiladi. Ushbu holatda odam gapirganda so'zlarni to'g'ri talaffuz qilmasligi, ba'zi qismlarini tushirib yuborishi yoki so'zlarni chalkashtirib yuborishi mumkin. Bu odatda nutq apparatining noto'g'ri ishlashi yoki miya faoliyatining buzilishlari bilan bog'liq bo'ladi, odam juda shoshilib gapiradi, natijada nutq tushunarsiz bo'lib qoladi, miya faoliyatida muammolar, epilepsiya yoki bosh miyaning organik zararlanishi, stress, xavotir yoki emotsiyal charchoq kabi holatlarda kuzatiladi.

Bradilaliya-

brady-sekin yoki sust, lalia-nutq degan ma'noni anglatadi. Bradilaliya- bu nutqning sekinlashishi va sustlashishi bilan xarakterlanadigan nutq buzilishi bo'lib, odatda markaziy asab tizimining faoliyatidagi buzilishlar bilan bog'liq. Ushbu holatda odamning gapirish tezligi pasayadi, gap oralari uzayadi va so'zlarni talaffuz qilish qiyinlashadi. Nutq to'xtab-to'xtab yoki uzilishlar bilan bo'ladi, odam so'zlarni tanlashda yoki o'z fikrlarini ifodalashda qiyinchilikka uchraydi, depressiya, emotsiyal charchoq yoki stress.

Duduqlanish-

o'zbek tilida "duduq" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bu so'z to'xtab qolish, ravon gapira olmaslik yoki tutilib gapirish ma'nosini bildiradi. Duduqlanish bu nutqning ritmi, ravonligi va tezligi buzilishi bo'lib, odam gapirganda tovushlar, bo'g'inlar yoki so'zlar takrorlanishi, cho'zilishi yoki to'xtab qolishi bilan kechadi. Bu holat ko'pincha bolalikda boshlanadi va asosan emotsiyal yoki nevrologik omillar bilan



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th January, 2025

bog‘liq bo‘ladi.Duduqlanish ikki turga bo’linadi:klonik va tonik. Klonik duduqlanish:Bo‘g‘inlar yoki tovushlar qayta-qayta takrorlanadi.masalan: "ma-ma-maktab". Tonik duduqlanish:Nutqning to‘xtab qolishi yoki tovushlarni cho‘zib talaffuz qilish.masalan: "m---aktab".

Nutqning tizimli buzilishi:alaliya,afaziya

Alaliya-

so‘zi yunonchadan olingan bo‘lib,a-rad etish yoki yo‘q,lalia-nutq degan ma’noni anglatadi. Alaliya bu bolalarda nutqning to‘liq yoki qisman rivojlanmasligi bilan bog‘liq bo‘lgan buzilishdir. Ushbu holat asosan miya po‘stlog‘ining nutq markazlari (Broka yoki Verneke zonalari) shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Alaliya bolaning tug‘ilishidan boshlab bo‘lishi yoki erta bolalikda miya jarohati, infektsiyalar yoki boshqa salbiy omillar tufayli rivojlanishi mumkin.Alaliya ikki xil bo‘ladi;motor va sensor.Motor alaliyada bosh miyaning broka zonasini shikastlangan bo‘ladi, bola so‘zlarni talaffuz qilishda yoki gap tuzishda qiyinchilikka duch keladi, juda kam so‘z ishlatadi, gapda noto‘g‘ri grammatik shakllar qo‘llaydi.Sensor alaliyada bosh miyaning verneke zonasini shikastlangan bo‘ladi, bola atrofdagi nutqni tushunishda qiyinchilikka uchraydi, oddiy so‘zlarni tushunmaydi (masalan, "kel", "ber")so‘zlarga javob bermaydi, xuddi eshitmayotgandek tuyuladi,betartib va ma’nosiz tovushlar chiqaradi.

Afaziya-

so‘zi yunonchadan olingan bo‘lib,a-yo‘q yoki rad etish,phasis-gapirish degan ma’noni anglatadi. Afaziya – bu miya yarim sharlarining nutq uchun javob beruvchi sohalari (asosan, Broka va Verneke zonalari) shikastlanishi tufayli yuzaga keladigan nutq buzilishi. Bu buzilish nutqni tushunish, ifodalash, o‘qish yoki yozish qobiliyatiga ta’sir qilishi mumkin. Afaziya ko‘pincha miya insulti, travma yoki o‘sma kabi nevrologik kasalliklar natijasida yuzaga keladi.Afaziya ikki xil bo‘ladi:motor va sensor.Motor afaziyada nutqni ifodalash buziladi, ammo tushunish saqlanib qoladi.Sensor afaziyada nutqni tushunish buziladi, lekin gapirish imkoniyati saqlanib qoladi.



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th January, 2025

O'qishdagi kamchiliklar:

aleksiya va disleksiya.

Aleksiya –

bu o'qish qobiliyatining to'liq yoki qisman yo'qolishi bo'lib, asosan miya po'stlog'ining o'qish uchun javob beradigan sohalari (ko'pincha gippokamp va nutq markazlari)ning shikastlanishi bilan bog'liq. Aleksiya ko'pincha miya insultlari, bosh miya jarohatlari yoki neyrodegenerativ kasalliklar natijasida yuzaga keladi. Ushbu holatni "so'nggi disleksiya" deb ham atashadi, chunki u ilgari o'qish qobiliyatiga ega bo'lgan odamlarda rivojlanadi.

Disleksiya

– bu nevrologik xususiyatlarga ega bo'lgan o'qish qobiliyatining buzilishi bo'lib, odam harflar va so'zlarni to'g'ri taniy olmasligi yoki ularni bir-biriga bog'lay olmasligi bilan namoyon bo'ladi. Disleksiya intelektual rivojlanish bilan bog'liq emas va odatda boshqa kognitiv qobiliyatlar saqlanib qoladi. U bolalikdan boshlab kuzatiladi va umr bo'yi davom etishi mumkin, lekin erta aniqlash va davolash bilan holat yaxshilanishi mumkin.

Yozishdagi kamchiliklar:

agrofiya va disgrofiya.

– bu yozish qobiliyatining qisman yoki to'liq yo'qolishi bo'lib, odatda miya po'stlog'ining yozuv uchun javob beruvchi zonalarining shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Bu buzilish nevrologik jarayonlar bilan bog'liq va ko'pincha miya insulti, bosh miya jarohati yoki neyrodegenerativ kasalliklar oqibatida yuzaga keladi.

Disgrafiya

– bu yozuv qobiliyatining buzilishi bo'lib, odatda nevrologik yoki psixologik omillar bilan bog'liq. Ushbu holat yozishda xatolar qilish, harflarni to'g'ri shakllantira olmaslik yoki ularni noto'g'ri joylashtirish bilan namoyon bo'ladi. Disgrafiya



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th January, 2025

odatda bolalikda paydo bo‘ladi va logopedik yondashuv hamda mashg‘ulotlar yordamida tuzatilishi mumkin.

Xulosa:

Nutq buzilishlari turli sabablarga ko‘ra yuzaga keladi: jismoniy, nevrologik yoki psixologik. Ularni erta aniqlash va to‘g‘ri terapiya usullarini qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Nutq terapiyasi, psixologik yordam yoki tibbiy muolajalar bu muammolarni bartaraf etishda yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

- 1.M.Ayupova “LOGOPEDIYA”.
- 2.Laylo Raupova “NUTQ MADANIYATI”.
- 3.Babayeva Dono Razzaqovna “BOLALARNI NUTQINI O’STIRISH NAZARIYASI VA TEXNOLOGIYASI”.
- 4.Elektron resurs.